


“TASDIQLAYMAN”



“Adolat” milliy huquqiy
axborot markazi direktori

F. Tojiyev

2022-yil “3” *fevral*

TEXNIK HUJJAT VA TOPSHIRIQ
(Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot
portaliga e’lon joylashtirish to’g’risida)

2022-yil uchun “Inson va qonun” gazetasi, “Huquq va burch” jurnali va “Qonunchilik to’plami” davriy hamda rasmiy nashrini Toshkent shahrida belgilangan manzildan Sirdaryo viloyati bo’yicha obunachilarga yetkazib berish yuzasidan e’lon matnini Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot portaliga joylashtirish zarur.

**Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot
portaliga joylashtiriladigan tanlov shartlari
va hujjatlari bo’yicha e’lon matni**

Tanlovga qo’yilayotgan xizmat turi:

2022-yil uchun “Inson va qonun” gazetasi, “Huquq va burch” jurnali va “Qonunchilik to’plami” davriy hamda rasmiy nashrini Toshkent shahrida belgilangan manzildan Sirdaryo viloyati bo’yicha obunachilarga yetkazib berish yuzasidan kuryerlik vazifasini bajarish.

Tanlov ishtirokchilariga qo’yiladigan talablar:

1. Xizmat ko’rsatish ishlarini “Buyurtmachi” tomonidan taqdim qilingan talablar asosida sifatli va tez bajarish;
2. Tegishli litsenziya va guvohnomaga ega bo’lgan va ushbu sohada kamida 3 yillik tajriba hamda o’z texnik bazasiga ega bo’lish (balansidagi texnik vositalari ro’yxatini ilova qilish kerak);
3. G’olib chiqqan tashkilot (“Bajaruvchi”) tomonidan nashrlarni obunachilarga 3 kun muddat ichida to’liq yetkazib berish va oy yakuni bo’yicha bajarilgan ishlar yuzasidan “Buyurtmachi”ga yozma hisobot topshirish;
4. Tanlov ishtirokchilari tomonidan xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish jarayonida korrupsion holatlarga yo’l qo’ymaslik xususida ariza taqdim etish;
5. Tanlovda g’olib chiqqan tashkilot (korxonada) bilan Markaz o’rtasida rasmiylashtirilgan shartnomada ko’zda tutilgan ishlar belgilangan muddatda bajarilmasa, har bir kechikkan kun uchun bajarilmagan qismining 0,4 foiz miqdorida penya undirish amaliyoti mavjudligi inobatga olinsin;
6. Talabgorlar tomonidan taqdim etiladigan 7 ta takliflar quyidagi talablarga asosan elektron tartibda baholanadi. Xususan, (ariza, kafillik xati, tanlov ishtirokchisi haqida umumiy ma’lumot, uning moliyaviy holati haqida ma’lumot,

Ko'rsatiladigan xizmatning umumiy tavsifi:

№	Hizmat turi	Jami adadi (tiraj)	Davriyligi	Formati og'irligi	1 dona nashrni yetkazib berish xizmat narxi
1.	"Inson va qonun" gazetasini obunachilarga yetkazish	4 845 nus'ha	Haftada bir marta. Yil davomida 52 ta son.	14 gr (A3, 8 bet)	800 so'm
2.	"Huquq va burch" jurnalini obunachilarga yetkazish	840 nus'ha	Oyda bir marta. Yil davomida 12 ta son.	270 gr (A4, 64 bet)	2 500 so'm
3.	"Qonunchilik to'plami"ni obunachilarga yetkazish	260 nus'ha	Haftada bir marta. Yil davomida 52 ta son.	A4 o'zgaruvchan	2 000 so'm

Buyurtmachi nomi: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi.

Buyurtmachi mansabdor shaxsining lavozimi, F.I.Sh., manzil va telefon raqami: direktor F. Tojiyev Mirobod tumani, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy. STIR:201 453 166

Tanlov taklifini rasmiylashtirish shakli: elektron talablar asosida.

Buyurtmani bajarish muddati: 2022 yil fevral-dekabr oylari.

Tanlov o'tkazish manzili: Toshkent shahar, Mirobod tumani, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy.

Boshlanish muddati: 03.02.2022-yil

Tugallanish muddati: 12.02.2022-yil

Takliflarni topshirishning oxirgi muddati: 2022-yil 12-fevral.

Takliflarni topshirish manzili: Mirobod tumani, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy. Telefon: (71) 233-25-65.

Takliflarni baholashning asosiy mezonlari:

Tannarx, muddat, ko'rsatiladigan xizmatlar turi, buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan e'lon shartlariga muvofiq bajarish muddati.

- Komissiya tomonidan xizmat ko'rsatish sifatli va o'z vaqtida bajarish bilan bog'liq boshqa holatlar ham mezon sifatida onlayn orqali baholanadi;

- Takliflar komissiya tomonidan elektron talablarga asosan baholanishi natijasida tanlov g'olibi aniqlanadi.

**Marketing, reklama
va obuna bo'limi boshlig'i**



F. Kuldashev

Moliya-iqtisod bo'limi boshlig'i



M. Yerdashev

**Mehnatni muxofaza qilish
va xo'jalik ishlari mudiri**



A. Tursunov
03.02.22 yil